

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2021-yilning I-choragida amalga oshirilgan ishlar

Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan statistika ishlari to‘liq hajmda bajarildi, iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko‘rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistik ma’lumotlar har oyda taqdim etib borildi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida, Farg‘ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati to‘g‘risida tegishli statistik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Farg‘ona viloyati hokimligiga, tuman va shahar hokimligiga, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish boshqarmasi, Moliya boshqarmasi hamda boshqa idoralarga taqdim etildi.

Jumladan, “Farg‘ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati” axborotnomasi (doklad) o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etilib, tegishli boshqarma va tashkilojlarga yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 3-fevraldag‘i “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–6155–son Farmoni mazmun mohiyati, uning so‘zsiz, sifatli va o‘z muddatida ijrosini ta’minalash borasida 2021-yilning I-choragida amalga oshirilgan ishlar hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2021-yilning I choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma’lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar–martida Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 7 303,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar–marti bilan taqqoslaganda 1,5 % ga o‘sdi. YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar–martidagi narxlarga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo’shgan hissasi 5,7 % ga yetdi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 5 090,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar–mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 95,2 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajimi 2021– yilning yanvar–mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajimi 2463,6 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil etdi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2021-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) **44 709** tani tashkil etib, ulardan **42 889** tasi yoki **95,9 %** i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2022-yilning yanvar–mart oylarida viloyatda **1 472** ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3,7** trln. so'mni, 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,9 %** ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **3,8** trln so'mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **100,2 %** ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2021-yilning yanvar-mart oylarida 321,9 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 124,7 mln. AQSH dollari va import – 197,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatida jami 1 289,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 114,1 %ni tashkil etdi.

Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 3834,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 14,1 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida investitsion faollikni oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 %ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida 9 102,7 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 59,1 %i yoki 5 375,9 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 40,9 % yoki 3 726,8 mlrd. so'm moliyalashtirildi.